



To'laganova Nigora Rahmonali qizi,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti*

O'SPIRIN QIZLARDA KREATIV TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarining mohiyati, mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishning turli jihatlari va ulardagi biznes va tadbirkorlik kompetensiyalarini farqlash imkoniyati xususida bir qancha olimlarning fikrlari keltirilib o'tilgan.

Аннотация. В статье на основе анализа научной литературы и материалов рассмотрены сущность, содержание, критерии и показатели креативных предпринимательских навыков у девочек-подростков. Также приводятся мнения ряда ученых о различных аспектах формирования основных компетенций учащихся и возможности дифференциации в них деловых и предпринимательских компетенций.

Annotation. The article reflects on the essence, content, criteria and indicators of creative entrepreneurial skills in teenage girls based on the analysis of scientific literature and materials. Also, the various aspects of the formation of the main competencies of students and the possibility of distinguishing between business and entrepreneurial competencies in them are presented in the opinions of several scientists.

Tayanch so'zlar: o'spirin qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalari, jamiyatni axborotlashtirish, texnologiyalarni rivojlantirish, kasbiy harakatchanlik, ehtiyojlarni qondirish, shakllantirish.

Ключевые слова: креативные предпринимательские навыки, информатизация общества, развитие технологий, профессиональная мобильность, удовлетворение потребностей, формирование у девочек-подростков.

Keywords: creative entrepreneurial skills of girls, informatization of society, technology development, professional mobility, satisfaction of needs, formation.

Dunyoda umumta'lim fanlari mazmunini kreativ yondashuv tamoyili asosida ishlab chiqish va o'quvchilarni keng tarmoqli, umummehnat tayyorgarligini rivojlantirish, yangi mehnat sharoitlariga moslashuvchan bilim va malakalarni mustaqil egallashga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, reklama va tijoriy faoliyat ko'nikmalarini tarkib toptirish, kichik korxonani boshqarishga o'rgatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Maktab ta'limida asosiy e'tibor o'quvchilarning kichik ishlab chiqarish korxonalari jalb etishga qaratiladi. Mazkur kichik ishlab chiqarish korxonalari o'quvchilarni biznes olamiga olib kirish orqali amaliy ko'nikma va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, tashabbuskorlik va kreativlikni rag'batlantirishni ta'minlaydi, ularda mustaqil o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyati mavjudligiga ishonchni qaror toptiradi va kasbga yo'naltirishga yordam beradi.

Jamiyat va davlat talablariga muvofiq ta'lim tizimi jamiyatni axborotlashtirish va yangi yuqori texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida yuqori ma'lumotli yoshlar va kasbiy o'sishga va kasbiy harakatchanlikka qodir malakali mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalashga mo'ljallangan. Mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish maqsadida ish beruvchilar va boshqa mutaxassis mijozlarni hamkorlikka jalb qilish masalasi alohida dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda o'quvchilarda, ayniqsa, o'smir qizlarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur kasbiy sifatlarni rivojlantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish, kasbiy-mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga jadal tayyorlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish uchun ta'limiy muhitni strukturalashtirish va qo'llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish, tadbirkorlik ta'limini joriy etishning faoliyatga yo'naltirilgan, o'quv fani sifatida, modulli, umumta'limiy yondashuv modellaridan samarali foydalanish, biznes asoslari va tadbirkorlik amaliyotini o'rgatishga doir ta'limiy dasturlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, har bir o'quvchini tadbirkorlik bilan shug'ullanishning fundamental asoslarini egallashi, tadbirkorlik faoliyatiga doir amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishiga erishishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni doirasida yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, ish o'rinlari yaratish va yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida qator islohotlar amalga

***Dunyoda
o'quvchilarda,
ayniqsa,
o'smir qizlarda
tadbirkorlik
faoliyati uchun
zarur kasbiy
sifatlarni
rivojlantirish va
ishlab chiqarishni
tashkil etish
sohasida bilim
va ko'nikmalarni
tarkib toptirish,
kasbiy-mehnat
ta'limi va kasbga
yo'naltirish
jarayonida
tadbirkorlik
faoliyatiga jadal
tayyorlashga doir
ilmiy izlanishlar
olib borilmoqda***

***O‘zbekiston
Respublikasini
yanada
rivojlantirish
bo‘yicha
Harakatlar
strategiyasida
“Kichik biznes
va xususiy
tadbirkorlikni
keng rivojlantirish
uchun qulay
ishbilarmonlik
muhitini yaratish,
mehnatga layoqatli
aholining mehnat
va tadbirkorlik
faolligini to‘liq
amalga oshirish
uchun sharoitlar
yaratish, xususiy
tadbirkorlik
sohasiga jalb
etish” kabi muhim
vazifalar belgilab
berildi.***

oshirilmoqda. Shu bilan birga oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi asosida o’smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modeli va integrativ texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi asosida o’smir qizlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish komponentlari, mezonlari, pedagogik-psixologik xususiyatlari, didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shuningdek, yangi tez o‘zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda hayotga va mehnatga kiradigan yosh avlodni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar va ularni amalga oshirishning pedagogik asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasidagi, ilmiy-texnik taraqqiyotning ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning inson salohiyatiga bo‘lgan talablari o‘rtasida, tadbirkorlik va o‘quvchilarning kreativ tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining mohiyatini yetarli darajada ishlab chiqmaslik, faol, savodli, ishbilarmon, malakali yosh xodimlarga muhtoj bo‘lgan ish beruvchilarning talablari va hozirda o‘quvchilar kelajakda mustaqil ishlash, biznes dunyosiga moslashish va muvaffaqiyatli martaba qurish uchun o‘qitilayotgan tizim o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq.

Respublikamiz olimlaridan B.Ganiyev, M.Inomova, V.Karimova, N.Murodova, O.Musurmonova, Q.Muftaydinov, A.Muxsiyeva, N.Nagmetova, D.Raxmatullayeva, F.Xidirova, B.Xodjayev, A.Xudoyqulov, Z.Xudoyberdiyev, G.Shodiyeva, Sh.Quvondiqov, M.Quronov, O.Hayitov, R.Hakimov kabilarning ilmiy-tadqiqotlari, monografiya va o‘quv qo‘llanmalarida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik jihatlari, maktab va oila hamkorligini ta’minlash mexanizmlari, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalalari yoritib berilgan.

Maktab o‘quvchilarining asosiy kompetensiyalarini shakllantirishning turli jihatlari va ulardagi biznes va tadbirkorlik kompetensiyalarini farqlash imkoniyati MDH olimlarining – E.F. Zeyer, I.A. Zimnaya, G.P. Skamnitskaya, V.V. Serikov, G.K. Selevko, S.Y. Senator, O. Y. Lebedeva,

A.M. Osipova, V.G. Zarubina va boshqalarning asarlarida keltirilgan.

Xorijiy pedagogika va amaliyotda D. MakKlelland, R. Boyatsis, J. Raven, kichik L.M. Spenser, S.M. Spenser, S. Uiddett, S. Xolliford, P. Marshal, N. Bautler, M. Delziel, J. Nil, J. Ueytmen, P. Karstanye kabi olimlar tomonidan biznes kompetensiyalari, yetakchilik qobiliyatlari, xususiyatlari va umuman tadbirkorga, xususan, yosh tadbirkorga qo'yiladigan talablar o'rganiladi. Shuningdek, yoshlarni ishda faol ishtirok etishga tayyorlash va o'z biznesini tashkil etishda kompetensiyalar va ijtimoiy sheriklik metodologiyasini qo'llash bilan shug'ullanishgan.

O'smir qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, ularni kasbiy shakllantirish, umumta'lim maktabi va oila integratsiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan bo'lsa-da, oila, maktab va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yaxlit tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa, o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning milliy-ma'naviy omillari, pedagogik-psixologik xususiyatlari, zamonaviy yondashuvlar asosida o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib quyidagi vazifalari aniqlandi:

1. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligining o'rni va ahamiyatini aniqlash.

2. O'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarining mohiyati va mazmunini ochib berish va asoslash.

3. Tadbirkorlik faoliyati va o'spirin qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Kreativ tadbirkorlik va o'smir qizlarning tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mazmunini aniqlash

5. Oila, mahalla va ta'lim muassasasalari hamkorligida o'spirin qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinab ko'rish.

6. O'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarining shakllantirish darajasini aniqlashga imkon beradigan mezon va ko'rsatkichlarni aniqlash; ular asosida o'smir qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish samaradorligini nazorat qilish.

7. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida o'spirin qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini samarali shakllantirishni tashkil etish bo'yicha ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ota-onalar, mahalla faollari uchun ilmiy, uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy adabiyotlar va materiallarni tahlil qilish asosida o'smir qizlarda

O'smir qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, ularni kasbiy shakllantirish, umumta'lim maktabi va oila integratsiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan bo'lsa-da, oila, maktab va ta'lim muassasasi hamkorligi asosida o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yaxlit tarzda tadqiq etilmagan.

kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarining mohiyati, mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlanadi:

– oila, mahalla va ta'lim muassasasalari hamkorligi imkoniyatlaridan foydalangan holda o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini va fazilatlarini shakllantirishga maqsadli va kompleks yondashuv zarurligi ilmiy asoslangan;

– “ta'limda oila, mahalla va ta'lim muassasasalari hamkorligi”, “yoshlar tadbirkorligi”, “o'smir qizlarning tadbirkorlik ko'nikmalari”, kabi tushunchalarni aniqlashtirish va belgilash orqali tadqiqotning terminologik sohasi kengaytirildi.

Dastlabki pozitsiyalarning uslubiy asosliliigi, tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos keladigan materialni tahlil qilishning keng usullari; ilgari surilgan maqsadning to'g'riligini tasdiqlovchi tadqiqotning asosiy nazariy qoidalarini eksperimental tekshirish va moslashtirish bilan ta'minlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'smir qizlarda kreativ tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: o'smir qizlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi oilalarning farovonlik darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi; o'smir qizlarning tadbirkorligi natijasida ularning xulq-atvorida erkaklarga nisbatan ijobiy ijtimoiy-ahamiyatli meyorlar shakllanadi; o'smir qizlarning kreativ tadbirkorligi asosida ular tomonidan amalga oshiriladigan biznes texnologiyalar zamonaviy o'zgarishlarga tezkor moslashishi, innovatsiyalarga boyligi va ijtimoiy yo'nalganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4231-son qarori.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4235-son qarori.*
4. *Ortiqova M. Umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish: p.f.d. dissertatsiyasi – Andijon, 2020.*